

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OZIQ-OVQAT SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH HAMDA KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Rasulova Sharifa G‘aybullayevna

Jizzax politexnika instituti,

Iqtisodiyot va menejment kafedrasi dotsenti

Email:sharifa5674969@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizning milliy iqtisodiyotida qurilish sohasining o‘rni va ahamiyati, Prezidentimiz tomonidan ko‘zlangan yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlarni saqlab qolish ham qurilish sohasidagi olib borilayotgan islohotlar bilan chambarchasi bog‘liqligi, hamda statistika boshqarmasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida qurilish ishlari bajarilish bo‘yicha ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Qurilish tarmog‘i, qurilish mahsuloti, bino, inshoot, qurilishning xo‘jalik usuli, qurilishning pudrat usuli.

KIRISH

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida oziq-ovqat savdosi korxonalarida xizmatlarni diversifikatsiyalashning samaradorligini oshirish pirovard maqsad bo‘lib hisoblanadi. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek – “Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish dolzarb masaladir”¹. Ushbu masalani hal etishda yangilanayotgan O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan oziq-ovqat savdosi korxonalarini xizmatlarining rolini oshirish muhim ustuvor vazifalardan bo‘lib, bu borada mamlakat miqyosida oziq-ovqat savdosini yanada rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini ta’minlash, ichki va tashqi bozorlardagi kon’yunktura o‘zgarishini inobatga olgan holda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni iste’molchilarga taklif etishda savdo xizmatlarini tarmog‘ini, yo‘nalishlarini kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, bugungi kunda jahonda oziq-ovqat savdosi sohasining rivojlanishi elektron tijorat darajasiga qadar ko‘tarilib, «elektron tijoratning ko‘lami 2,8 trln. AQSH dollari va o‘shish sur‘atlari 20-25 foizni tashkil etmoqda»¹. Bu ko‘rsatkichlar jahon miqyosida oziq-ovqat savdosi xizmatlarining takomillashayotganidan dalolat beradi. Jahonda oziq-ovqat savdosi sohasini samarali rivojlantirishga, bozorlarda

raqobatbardosh mahsulotlarning turlarini kengaytirishga oid tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, soha xizmatlari samaradorligini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish masalalari ham ustuvor vazifalar sifatida baholanmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida eng muhim muammolaridan biri oziq-ovqat xavfsizligi va aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashdir. Oziq-ovqat sanoati mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'ldirishning ob'ektiv zarurati oziq-ovqat sanoati korxonalarining samarali ishlashini nazarda tutadi, chunki oxir-oqibat nafaqat aholining turmush darajasi, balki umuman iqtisodiyotning rivojlanishiga ham bog'liq. Shu bois, oziqovqat sanoati korxonalarini yetuk bozor munosabatlari sharoitida va ichki oziq-ovqat bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida, nafaqat an'anaviy resurslardan, balki, birinchi navbatda, texnologik va tashkiliy asosda foydalanishga asoslangan yangi boshqaruv tizimi zarur. Bu vazifa nazariy va amaliy xarakterdagi bir qator yangi muammolarni hal qilish uchun asos xisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Oziq-ovqat savdosi korxonalarida xizmatlarni diversifikatsiyalash va samaradorligini oshirish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari oliy ta'im muassalarida, jumladan, Cornell University (AQSH), Les Roches International Sool of Hotel Management (Ispaniya), Oxfort Brookes University (Buyuk Britaniya), Bluye Mountains International Scool of Hotel Managemen (Avstraliya), University of Surrey (Buyuk Britaniya), Shanxay National University (Xitoy), Maskva davlat universiteti (Rossiya) tomonidan olib borilmoqda.

Oziq-ovqat savdosi korxonalarida xizmatlarni diversifikatsiyalash va samaradorligini oshirish masalalari xorijlik olimlar A.I.Brestskiy, M.A.Vaxrushina, A.M.Gremonkov, S.A.Atamanenko, K.V.Baldin, G.Y.Kasyanov, T.P.Karpova, N.P.Kondrakov, M.I.Kuter, G.N.Kabushinskaya, A.M.Gremonkov, S.M.Levko, I.D.Mixalaki, G.N.Kabushinskaya, O.M.Petrushina kabilarning1 ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, M.Q.Pardayev, K.B.Urazov, M.E.Po'latov, M.M.Muxammedov, Q.Q.Qurolov, G' .H.Qudratov, S.O.Voxidov, I.S.Tuxliyev, N.Y.Jo'rayev, B.A.Abdukarimov, N.U.Arabov, T.S.Sharipov, B.A.Xasanov, Z.T.Mamatov, I.S.Ochilov, N.A.Komilova, A.K.Ibragimov, J.R.Uraqov, S.V.Voxidov, S.Sh.Yuldashev, B.Sh.Safarov, Y.P.Urunbayeva, Sh.A.Sultonov kabilarning1 ilmiy izlanishlarida xizmatlarning umumiy masalalari, savdo xizmatlari samaradorligini oshirish bilan bog'liq muammolar o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy tahlil, sabab va oqibat, zamon va makon, kuzatish, tizimli yondashuv, SWOT tahlil, iqtisodiy tahlilning an'anaviy, iqtisodiy matematik va statistik, sotsiologik so'rov, qiyoslash, sinergetik tahlil, korrelyatsiya va regressiya kabi usullardan foydalanilgan.

TADQIQOT NATIJALARI

Mamlakatimizda pandemiya oqibatlaridan so'ng, aholi tomonidan kundan-kunga oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishga bo'lgan talab keskin darajada ortib bormoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida aholining kundalik xaridlarini eng asosiy qismini iste'mol uchun mo'ljallangan birlamchi mahsulot sifatida oziq-ovqat mahsulotlari egallaydi. Shuning, uchun ham mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashga mo'ljallangan korxonalarini qayta ishlash imkoniyatlarini yanada takomillashtirish hamda ularni iqtisodiy samardorligini oshirish zamon talabi hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini iqtisodiy samardorligini oshirish bevosita zamonaviy klaster tizimini rivojlantirishga bog'liqdir. Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini yanada takomillashtirish borasida mamlakatimizda Muhtaram, Prezidentimiz tomonidan yangi islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq ho'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish va qayta ishlashga qaratilgan bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan: oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish; qishloq ho'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko'paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish kabi muhim bo'lgan vazifalar keltirib o'tilgan. Qolaversa, bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal taraqqiyotini ta'minlash uchun tarkibiy islohotlarni amalga oshirish, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aks holda nafaqat iqtisodiyotimiz rivojini, balki milliy taraqqiyotning yuksak sur'atlarini ham ta'minlab bo'lmaydi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib

aytish mumkinki, klaster tizimi asosida oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror darajada rivojlantirishdagi ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining hozirgi holati, zamonaviy klaster tizimi asosida yangi innovatsion o'zgarishlarni amalga oshirish sur'atlarini yanada jadalashtirishni talab etmoqda. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, samarali klaster tizimi asosida innovatsion yondoshuvlarni amalga oshirish mamlakatimizdagi oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini iqtisodiy samaradorligini yuqori darajada oshirishini ta'minlaydi.

Iqtisodiyotning innovatsion shakllanishi korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondoshuvlar hisobiga yuz beradi, bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotini o'sishiga, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashni rivojlantirishga, xarajatlarni tejalishiga hamda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga sabab bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda klaster tizimidan samarali foydalanish korxonalarga yangi imkoniyatlarni yaratib beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizdagi oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida ham bir qator kamchiliklar mavjud, jumladan: oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida klaster tizimidan samarali foydalanish bo'yicha aniq tizim shakllanmagan.

Masalan, Germaniya davlatida oziqovqat sanoatining zamonaviy innovatsion klaster tizimi mavjud bo'lib, yuqori darajadagi ko'rsatkichlarga ega, bizda esa oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida klaster tizimi innovatsion jihatdan yuqori darajada rivojlanish ko'rsatkichiga ega emas; mahsulotni saralash, qadoqlash, qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha agrologistika markazlari tashkil etilishiga qaramasdan, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida klaster tizimini rivojlanmayotganligi, faqatgina bir tomonlama qayta ishlash imkoniyati bilan cheklanib qolinayotganligi iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini yuqori darajada emasligini ko'rsatadi;

oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va klaster tizimida rivojlantirish bo'yicha kichik korxonalarini tashkil etilmayotganligi, faqatgina yirik korxonalar faoliyati bilan cheklanib qolingani natijasida tizimli hamkorlik yo'lga qo'yilmaganligi hamda tarmog'ni monopollashuviga olib kelmoqda;

oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha klaster tizimida mahsulot yetishtiruvchilar, qayta ishlovchilar va boshqa yirik korxonalar o'rtasidagi o'zaro tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning yetarli darajada mukammal emasligi va uni takomillashtirish zarurligi hal qilinishi lozim bo'lgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Xususan, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiya orqali rivojlantirish quyidagi jadvalda ko'rsatib o'tilgan iqtisodiy ko'rsakichlarga erishishini ta'minlaydi.

1-Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Qishloq ho'jaligida 117,3 trln so'mlik (14 mlrd AQSh doll.) qo'shilgan qiymat yaratilgan bo'lsa, uni yillik o'sishi 2021-yilda 3 foizga, 2025, 2030-yillarda esa 5 foizdan kam bo'lmagan holatda o'stirish ko'zda tutilgan. 2018-yilda qishloq ho'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti hajmi 2,3 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda uni 3,5 mlrd. AQSh dollari, 2025-yilda 10 mlrd. AQSh dollari, 2030-yilda esa 20 mlrd. AQSh dollariga yetkazish rejalashtirilgan.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi qishloq ho'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini amalga oshirish natijasida erishiladigan asosiy ko'rsatkichlar va indikatorlar

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Asos (2018 y.)	2021-yilga maqsad	2025-yilga maqsad	2030-yilga maqsad
1	Qishloq ho'jaligida qo'shilgan qiymatning yillik o'sishi	117,3 trln so'm (14 mlrd AQSh doll.)	3 foiz	5 foiz	5 foiz
2	Qishloq ho'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ida ish o'rinlari sonining o'sishi: Qishloq ho'jaligi, Oziq-ovqat sanoati, To'qimachilik sanoati	3 671 300 91 420 140 200	2 foiz 3 foiz 3 foiz	1 foiz 4 foiz 4 foiz	1 foiz 5 foiz 5 foiz
3	Qishloq ho'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti hajmining oshishi	2,3 mlrd AQSh doll.	3,5 mlrd AQSh doll.	10 mlrd AQSh doll.	20 mlrd AQSh doll.
4	Aholi o'rtasida to'yib ovqatlanmaydiganlar ulushi	6,3 foiz	5 foiz	3 foiz	0
5	Qishloq ho'jaligida mehnat unumdorligini oshirish (bir nafar ishchiga bir yilda dollarda)	3 960 AQSh doll.	4 300 AQSh doll.	5 200 AQSh doll.	6 500 AQSh doll.

6	Qishloq ho'jaligidagi issiqxona gaz chiqindilarini kamaytirish	15 740 gigagramm (2016 yil)	10 foiz	30 foiz	50 foiz
---	--	-----------------------------	---------	---------	---------

Bundan tashqari, 2030-yilgacha bo'lgan oraliqda aholi o'rtasida to'yib ovqatlanmaydiganlar ulushi 2018-yilgi 6,3 foizdan, 2030-yilda 0 foizga pasaytirish, qishloq ho'jaligida mehnat unumdorligini oshirish natijasida 2018-yilgi bir nafar ishchiga bir yilda to'g'ri keladigan 3 960 AQSh dollarni, 2030-yilda 6 500 AQSh dollariga yetkazish belgilab qo'yilgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan jadvalda, qishloq ho'jaligi strategiyasini 2020-2030-yillarda rivojlantirish orqali ko'plab iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirish nazarda tutilgan. Jumladan, strategiyani rivojlanishi qishloq ho'jaligi va qayta ishlash sohalarida klaster tizimini rivojlanishiga, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini esa yuqori darajada iqtisodiy samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari quyidagi bir qator omillarga bog'liqdir.

Birinchiidan, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida zamonaviy klaster tizimini joriy etish;

Ikkinchiidan, iqtisodiy samaradorlikni oshirishda innovatsion yondoshuvlarva rivojlangan davlatlarning zamonaviy tajribalardan samarali foydalanish;

Uchinchiidan, xarajatlarni minimallashtirish hamda resurs-tejamkor texnologiyalarni tatbiq etish;

To'rtinchiidan, iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda zamonaviy KPI baholash dasturlaridan oqilona foydalanish;

Beshinchiidan, qayta ishlash imkoniyatlarini oshirish hamda korxonalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlash;

Oltinchiidan, zamonaviy kadrlar siyosatini yuritish va mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni tatbiq etish muhim omillar sanaladi.

Qolaversa, 2020-2030-yillarga mo'ljallangan qishloq ho'jaligini rivojlantirish strategiyada ham oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ko'plab aniq vazifalar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ulardan samarali foydalanish va amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatining tez rivojlanib ketmasligiga asosiy sabab aylanma mablag'larning yetishmasligi, xomashyolar tanqisligi, ularning faoliyatini to'xtab qolishi va boshqalardir. Shuningdek, respublikada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va samaradorligini oshirish

bo'yicha bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilayotgan bo'lsada, hududiy xususiyatlarni inobatga olish hamda raqobat muhitini yaratuvchi korxonalar faoliyatiga qo'yilgan talablar, unga ajratilgan imtiyozlardan samarali foydalanish, aholining oziqovqat mahsulotlariga bo'lgan iste'mol darajasi va ishlab chiqarish hajmini iqtisodiy matematik modellar asosida chuqur o'rganishni talab etadi.

Ushbu tahlillar asosida esa mazkur sanoat korxonalarining boshqaruv mexanizmini to'komiillashtirish va shu asosida raqobatga kirishish mumkin ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Oziq-ovqat sanoati korxonalar faoliyatini rivojlantirish uchun uning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish xususiyatlari to'g'risida mulohazalar yuritilganda, birinchi navbatda har bir iqtisodiy faoliyat turida bo'lgani kabi tavakkalchilik bilan bog'liq faoliyat tushuniladi. Chunki umumiy ma'noda tavakkalchilik – tadbirkorlik faoliyatini yuritishda xavf-xatarga va tahlikaga borishdir.

Tavakkalchilik tadbirkorlik faoliyatining tub negizi bo'lishiga sabab:

birinchidan, tadbirkorning tavakkalchilik asosida faoliyat yuritishini iqtisodiy mustaqilligi, faoliyat turini erkin tanlashi, ishlab chiqarish vositalaridan erkin foydalanishini bildiradi.

ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar raqobat kurashiga kirishadi.

uchinchidan, tadbirkor tavakkalchilik bilan ish boshlaganda boshqa qator omillar ta'sirida ham tahlikaga borishi mumkin. Jumladan, iqtisodiyotdagi mavjud nobarqarorlik holati ishlab chiqarish sohasini tanlashda tavakkalchilik xavfini oshiradi. Chunki bu sohaning foydali ekanligi to'g'risida aniqlik darajasi bo'lmaydi. to'rtinchidan, tavakkalchilik qonunchilikka ham bog'liq, ya'ni amal qilayotgan qonun ostida huquqiy me'yorlardagi qonunchilikka zid holatlar tavakkalchilik xavfini oshiradi.

Oziq-ovqat sanoati agrosanoat majmuining ajralmas qismi bo'lgan xalq iste'moli tovarlari sanoatining tarmoqlaridan biri bo'lib, insonning eng eng muhim ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan. Oziq-ovqat sanoati xalq xo'jaligining muhim, ko'p tarmoqli, ijtimoiy yo'naltirilgan tarmog'i bo'lib, keng assortimentdagi yuqori sifatli iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Natijada mehnatga layoqatli aholi bandligini ta'minlash, uning salomatligi va farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, oziq-ovqat sanoati ko'plab turdosh tarmoqlar bilan chambarchas bog'liq; qishloq xo'jaligi, kimyo va mashinasozlik sanoatining rivojlanishiga hissa qo'shadi.


Oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi birinchi navbatda texnologik salohiyatining samaradorligi quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Qishloq ho‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish;
2. Ushbu sanoat uchun qurilgan ob’ektlarning mavjudligi;
3. Barcha turdagi energiya resurslari bilan ta'minlash;
4. Transportning samarali ishlashi.

Innovatsiyalar korxonalarining muvaffaqiyatining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda ular oziq-ovqat sanoatida muhim rol o‘ynay boshladilar, bu odatda yetarlicha yetuk va sekin rivojlanayotgan sektor sifatida belgilandi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmini takomillashtirish hisobiga ushbu sohada sezilarli iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu natijaga erishish uchun esa oziq-ovqat sanoati korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta’sir etuvchi omillarni alohida turkumlab olish va shu asosida xar bir omilni korxonalar faoliyatiga ta’sirini baholash lozim.

1-rasm ma’lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, barcha korxonalarda bo‘lgani kabi huquqiy-me’yoriy omillarni korxonaning boshqaruv mexanizmiga eng yuqori ta’sir etishini va undan keyingisi esa iqtisodiy omillar hisoblanadi. Bunga biz o‘ndan ortiq omillarni kiritib har birini ta’sirini baholash mumkin.



1-rasm. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini boshqarish mexanizmini takomillashtirishga ta’sir etuvchi omillar

Oziq-ovqat sanoati korxonalarining mahsulotlarini turkumlashda ularning har xil xususiyatlarini hisobga olib ularning boshqaruv strukturasi ham turlicha shakllaniriladi. Shuningdek, mustaqil iqtisodiy faoliyat va javobgarlik tadbirkorlik faoliyatini yuritishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisobiga ushbu korxonalarda boshqaruvning eng zamonaviy usullaridan foydalanishlik talab etiladi. Bu xususiyat tadbirkorlik mohiyatidan kelib chiqib, tadbirkorning iqtisodiy mustaqilligi, teng huquqli bo'lishi bilan xam ifodalanadi.

Tadbirkorning tavakkalchilik bilan faoliyat yuritishi ham uning iqtisodiy mustaqilligidan, faoliyat turini erkin tanlashidan dalolat berib undagi boshqaruv mexanizmi ham o'ziga hosligi bilan ajralib turadi.

Shuni ta'kidlash joizki, oziq-ovqat sanoatida kichik korxonaning o'ziga xos boshqaruv mexanizmlari va xususiyatlari to'g'risidagi masala ham munozaralidir. Ularni ikki guruhga ajratib boshqarish va o'rganish mumkin, ya'ni iqtisodiy va ijtimoiy guruhlarga. Oziq-ovqat sanoatida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy xususiyati bo'lib, uning tub vazifalarini faoliyat turi sifatida va tadbirkorning mulkdor sifatida mos kelishi hisoblanadi.

Eng muhimi, kichik tadbirkorlikning ijtimoiy xususiyati jamiyatda ijtimoiy tanglikni pasaytiradi va bozor munosabatlarini chuqurlashtirishga olib keladi. Barcha tadbirkorlik faoliyati, xususan, oziq-ovqat sanoati tadbirkorligi uchun ham yaratilayotgan mahsulotning iste'mol qilinishi, uning savdodagi xarid miqdori muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tadbirkorning boshqaruv mexanizmi masalalarini yaxshi anglashi tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

2-Jadval. Iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibi (foizda)

Yillar	2000	2005	2010	2015	2020
Jami	100	100	100	100	100
shu jumladan:					
oziq-ovqat mahsulotlari	46,9	39,6	38,2	43,1	33,6
vino-aropq mahsulotlari va pivo	7,3	3,4	3,7	2,9	2,7
nooziq-ovqat mahsulotlari	45,8	57	58,1	54	63,7

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, mamlakatimizda o'tgan yillar davomida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish ulushini sezilarli ravishda

boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilishiga nisbatan kamayib borayotganligini tahlil qilishimiz mumkin. Ushbu tahlil asosida mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarilishini kamayish tendensiyasida ketmoqda deb aytish notog'ri deb qarash mumkin. Buning sababi mahsulotlar aynan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada kamayganini ko'rishimiz va oziq-ovqat mahsulotlarini xavfsizligini ta'minlash birinchi darajadagi maqsad qilib olinganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Tadqiqot maqsadiga erishish va muayyan vazifalarni hal qilish uchun tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanilgan:

monografik-turli mamlakatlarda innovatsion faoliyatni boshqarish bo'yicha jahon tajribasini o'rganishda;

mavhum-mantiqiy-sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish va xulosalar va takliflarni shakllantirish;

iqtisodiy-statistik - mamlakat oziq-ovqat sanoati korxonalarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning hozirgi holati va tendentsiyalarini tahlil qilish;

tahlil va sintez usullari, hisoblash va konstruktiv – oziq-ovqat sanoati korxonalarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning iqtisodiy mexanizmi samaradorligini baholash va innovatsion faoliyatni takomillashtirish yo'nalishlarini asoslashda;

qiyosiy tahlil-oziq-ovqat sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha yetakchi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan taklif etilgan metodologik yondashuvlar, tushunchalar, ishlanmalar va takliflarni batafsil o'rganishda.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish eng yaxshi harakat va chora-tadbirlarni izlashni talab qiladi, ikkinchisi esa an'anaviy va innovatsion usullar, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan faoliyat yuritish uslublari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar paydo bo'lishi sababli ko'pincha qiyinlashadi. An'anaviy faoliyat turidan yangi faoliyat turiga bunday o'tish bosqichma-bosqich, amalga oshiriladi, baholashni, yangi salohiyatni to'plashni, harakatlarni amalga oshirishning samarali usullarini izlashni talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarish mexanizmiga ta'sir etuvchi omillar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

- oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoj hamisha yuqori bo'lganligini, bu ehtiyoj bundan buyon ham ortib borishini hisobga olib, mazkur sohadagi tadbikorlik sub'ektlari faoliyatini yanada rivojlantirish zarur;

- oziq-ovqat korxonalarining xom ashyo manbai bo'lgan qishloq ho'jaligida sanoat ishlab chiqarishning kichik sanoat korxonalariga davlat ko'magini berish hamda ularga qo'shimcha imtiyozlar yaratish; oziq-ovqat sanoati korxonalarini ishlab chiqarish salohiyati, bilimi hamda malakasini oshirish tizimini yangilash va takomillashtirish.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqarish mexanizmiga ta'sir etuvchi omillar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoj hamisha yuqori bo'lganligini, bu ehtiyoj bundan buyon ham ortib borishini hisobga olib, mazkur sohadagi tadbikorlik sub'ektlari faoliyatini yanada rivojlantirish zarur;

oziq-ovqat korxonalarining xomashyo manbai bo'lgan qishloq ho'jaligida sanoat ishlab chiqarishning kichik sanoat korxonalariga davlat ko'magini berish hamda ularga qo'shimcha imtiyozlar yaratish;

oziq-ovqat sanoati korxonalarini ishlab chiqarish salohiyati, bilimi hamda malakasini oshirish tizimini yangilash va takomillashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turg'unov, M. (2021). Oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini boshqarishning o'ziga xos ayrim xususiyatlari. SJ International journal of theoretical and practical research, 1 (2),65-75.
2. Suyunov Jaloliddin O'ktam o'g'li. //Oziq-ovqat savdosi korxonalarida xizmatlarni diversifikatsiyalash va samaradorligini oshirish yo'llari.// iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand-2023
3. Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li. (2023). Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirish. Xalqaro standartlar va zamonaviy ilg'or tajribaga asoslangan milliy korporativ boshqaruv tizimini innovatsion rivojlantirish istiqbollari, 504–509.
4. Sharifa, R., & Mahliyo, K. (2023). Organizational structure of enterprises and their appearances. Journal of economy, tourism and service, 2(5), 77-83.
5. Gaybullayevna, R. S. ., & Musurmangulov. (2024). The importance of time management in ensuring efficiency in construction. Journal of economy, tourism and service, 3(1), 28–31.